

IQTISODIY RIVOJLANGAN DAVLATLAR TALIM TIZIMI VA ULARNING OZIGA
XOSLIKLAR**Nargizaga Yesenbayevna Perdeshova***Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari, ta'lim tizimining iqtisodiyotda tutgan o'rni bo'yicha turli xil nazariyalar, olimlarning fikrlari tadqiq etilgan. Maqolani tayyorlashda solishtirma tahlil metodidan foydalanilgan bo'lib, bir nechta olimlarning aholi bilim darajasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqalari bo'yicha fikrlari, tadqiqotlari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, bandlik, iqtisodiy o'sish, oliy ta'lim, mikro iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, raqobat, ta'lim eksporti, iqtisodiy samara, korrupsiya, daromad, mehnat unumdorligi, ish haqi, ta'lim xarajatlari, ta'lim krediti, to'lov- kontrakt, davlat buyurtmasi, budjet mablag'lari.*

Аннотация: *В данной статье исследованы различные теории, мнения ученых о роли системы образования в экономике, вопросы обеспечения экономического роста через развитие системы образования в стране. При подготовке статьи был использован метод сравнительного анализа, изучены мнения, исследования нескольких ученых о взаимосвязи уровня знаний населения и экономического роста.*

Ключевые слова: *Образование, занятость, экономический рост, высшее образование, микроэкономика, макроэкономика, конкуренция, Экспорт образования, экономический эффект, коррупция, доходы, производительность труда, заработная плата, расходы на образование.*

Abstract: *This article examines the issues of ensuring economic growth through the development of the education system in the country, various theories and opinions of scientists on the role of the education system in the economy. The article uses the method of comparative analysis, and studies of several scientists on the relationship between the level of education of the population and economic growth are studied.*

Keywords: *Education, employment, economic growth, higher education, microeconomics, macroeconomics, competition, education export, economic efficiency, corruption, income, labor productivity, wages, education costs, education credit, payment-contract, government order, budget funds.*

Hozirgi zamon jahonning ko'plab mamlakatlarining asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Chunki bu aholi turmush darajasini oshirish, ularning ish bilan bandligini ta'minlash va jamiyat farovonligini mustahkamlashning asosiy dvigateli hisoblanadi. Biroq, barqaror hamda mustahkam iqtisodiy o'sishga erishish uchun bir

qator omillarni hisobga olish zarur. Ular ichida eng asosiylaridan biri mamlakat aholisining bilim darajasidir.

Hozirgi kunda barchamizga ma'lumki, ta'lim inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo'shadigan eng asosiy vositalardan biridir. Ta'lim orqali zamonaviy iqtisodiyotda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllantirildi hamda insonlarga zamonaviy va tez o'zgaruvchan mehnat bozoriga moslashish imkonini yaratadi. Shu boisdan ham aholining bilim olishi masalasi nafaqat tadqiqotchilar, bali siyosatchilar va iqtisodchilarning ham diqqat markazida turadi.

Ta'limning mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sirini klassik iqtisodchi olimlar ham, hozirgi zamon olimlari ham birday o'rganishgan. Jumladan, klassik iqtisodchi Adam Smitning “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot” asarida mehnat unumdorligini oshirishda ta'limning muhimligi alohida ta'kidlangan. Ushbu asarda ilmiy xodimlar zamonaviy usul va texnologiyalardan samaraliroq foydalanishi mumkinligini tadqiq etilgan.

Ta'lim tizimi bo'yicha tadqiqot olib boruvchi yana bir olimlardan Patrinos (2016) ta'limning qaysi darajasiga intilish kerakligi haqidagi savolga qisqacha javob berar ekan, oliy ta'limning daromadlilik darajasi eng yuqori ekanligini hisobga olib, aksariyat siyosatchilar mamlakatda ko'proq oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishga chorlaydi. Biroq, mamlakatda oliy ta'limga e'tiborni kuchaytirish bilan bir qatorda, boshlang'ich va o'rta ta'limning rolini kamaytirmaslik lozimligini o'z tadqiqotlarida ta'kidlab o'tadi. Muallif, shuningdek, ta'limning yana bir o'ziga xos jihatini, ya'ni ta'limning barcha darajalariga sarmoya kiritish ayollarning salomatligi va bilim darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish orqali kelajak avlodning alohiyatini yaxshilashga olib kelishini tadqiq qiladi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning oliy ma'lumot olishlari uchun investitsiya kiritgan mamlakatlar mamlakat tarmoq va sohalarining umumiy samaradorligini oshirish va gender farqini yanada qisqartirish bo'yicha to'g'ri investitsiyaviy qabul qilgan deb hisoblaydi.

Ta'lim sanoatda texnologik imkoniyatlar va texnik o'zgarishlarni rivojlantirishning ma'lumot olishga majburlovchi asosiy sabab aynan mansab masalasidir: respondentlarning aksariyati diplom bilan yaxshi ish topish osonroq, deb hisoblaydi. Sabablar ro'yxatida ikkinchi o'rinni pul egallaydi, uchinchi - hayot yo'lini tanlash to'g'risida qaror qabul qilish imkoniyati. Bundan tashqari, o'rta maktab muhim omili hisoblanadi.

Albatta, ta'limning yolg'iz o'zi iqtisodiyotni o'zgartira olmaydi. Ichki va xorijiy investitsiyalar hajmi va sifati, shuningdek, umumiy siyosiy muhit iqtisodiy ko'rsatkichlarni belgilovchi boshqa muhim omillardir. Biroq, inson taraqqiyoti darajasi ham bu omillarga ta'sir qiladi. Siyosatni ishlab chiqish va investitsiya qarorlarini qabul qilish sifati muqarrar ravishda menejerlarning bilim darajasiga bog'liq. Inson kapitali darajasi yuqori bo'lsa, ichki va xorijiy investitsiyalar ko'proq bo'lishi mumkin.

Ta'lim eksportning tabiati va o'sishiga ham ta'sir ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchining ma'lumoti va malakasi uning savdo shakllariga ta'sir qiladi.

Xorij pedagogik tajribasini o'rganish va undan foydalanish ta'limning samaradorligini oshirish yo'llaridan biri hisoblanadi. Ta'lim haqidagi fan – edukologiya, bilim va ijtimoiy amaliyotning boshqa sohalari singari jahon tajribasini o'rganmasdan va o'zlashtirmasdan rivojlanishi mumkin emas. So'nggi yillarda butun dunyoda ta'lim sohasida olamshumul o'zgarishlar yuz berdi. Ular jahon ta'limiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatdi, uning qarshisida yangilanish va rivojlanish uchun keng yo'l ochdi va imkoniyatlar yaratdi. Ta'lim ma'naviy tajriba almashish sohasiga, ijtimoiy, madaniy va siyosiy farqlarni saqlab qolgan holda umuminsoniy sivilizatsiyani shakllantirish negiziga aylandi.

Jahon ta'lim tizimi tinimsiz yangilanuvchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim dasturlari va metodlarida o'z umrini yashab bo'lgan eski unsurlar o'ladi va ularning o'rnini zamonga mos yangi unsurlar egallaydi. Bu dialektik jarayonni tushunish ta'limga davr sinovidan o'tgan an'analarni saqlab qolgan va yangi samarali g'oyalarni amalga joriy etgan holda muttasil tuzatishlar kiritishni taqozo etuvchi taraqqiyotning muhim vositasi sifatida yondashish imkonini beradi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida har jihatdan rivojlangan kishini tarbiyalash muammosi hozirgi kunning asosiy talabi bo'lib turibdi. Chunki, jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy uzgarishlarni insonning uzini uzgartirmasdan amalga oshirib bulmaydi. Ammo, yangi kishini tarbiyalash o'z-o'zidan emas, balki ijtimoiy munosabatlar yangilanishi jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda maktablar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan ta'lim sohasida mavjud tajribaga, shu jumladan xorij tajribasiga yangicha ko'z bilan qarash, uni qayta anglab yetish, milliy ta'lim amaliyotida ilg'or g'oyalardan foydalanish yo'llarini topish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasidagi murakkab muammolarning yechimlarini topish jahondagi barcha ta'lim tizimlarining kuch-g'ayratini birlashtirishni taqozo etadi. Kelajak ta'limi paradigmasini topish yo'lidagi izlanishlar uni birlashtirishning qudratli qo'shimcha omiliga aylanmoqda.

Ta'lim madaniyat fenomeni sifatida ochiqligi bilan ajralib turadi va madaniyat muloqotiga tayyorlikni namoyon etadi. Bu boshqa mamlakatlarning ta'lim tizim bilan faol o'zaro aloqaga intilishda o'z ifodasini topadi. Buning natijasi o'laroq ta'lim sohasida rang-barang amaliyotlar vujudga keladi. Hozirgi zamon ta'limining rivojlanish jarayonini tavsiflovchi umumiy manzarani aniqlashga intilish jahonning turli mamlakatlari tajribasi o'rganilishiga olib keladi.

Ta'lim deganimizda umumiy ta'lim haqida gap ketyapti, bunda maktab va oliy ta'lim ham, boshqa ixtisoslashgan ta'lim haqida ham gapiryapman. Ta'lim ham boshqa

investitsiyalar singari rag'batlarga ega. Rag'batlar bo'lsa, insonlar ta'limga investitsiya qilishni o'ylashadi. Mana shu qarorimizning asosiy o'lchovlaridan biri shu investitsiyalarimizni pullashtirishning iloji bormi? Albatta, bu kelajakni o'ylab qilingan narsa. Bir xil vaqtda insonlarning qarori uzoq muddatni o'ylab qabul qilinmaydi. Umuman olganda, odamlarning ijtimoiy sohalarga investitsiya qilishi kelajakdagi kutilmalarga bog'liq bo'ladi, agarda mamlakatda shu kutilmalar yaxshi bo'lmasa, ta'limga investitsiyalar insonlar tomonidan kamroq bo'lishi mumkin. O'sha-o'sha mamlakatda kelajakka nisbatan optimizm orsa, shu mamlakat rivojlanishiga yoki u yerdan ketishiga ishonchi ko'proq bo'lsa, balki ular ta'limga investitsiya qiladi.

Albatta, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab yurtimizda ta'lim tizimini isloh etishga katta e'tibor qaratildi va bugungi kunga kelib sohada ma'lum yutuqlarga erishildi. Uzluksiz ta'lim tizimida, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim turlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Qo'lg'a kiritilgan yutuqlar o'zimizniki.

Bugun amaldagi ta'lim tizimimiz zamonaviy, rivojlangan davlatlardagi kabi globallashuv talablariga javob bera olayaptimi? Ta'lim tizimida yechimini kutayotgan qanday muammolar bor? Kadrlar tayyorlash milliy tizimining globallashuv jarayonida bozor talablariga to'liq javob bermasligi, ta'lim tizimida o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi takomiliga yetkazilmaganligi, yuksak malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, hozirgi zamon talablariga mos o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar kamligi, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro aloqaning zaifligi tizimdagi kamchiliklardan hisoblanadi.

Bugungi kunda o'quv muassasalarini bitirib chiqayotgan o'quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash layoqati to'la rivojlangan, deb bo'lmaydi. Ularda ilm-fan yutuqlariga, amaliyotga tayangan yechimlar qabul qilish uchun malaka va bilim yetarli emas. Shu bois maktab, kollej va akademik litseylarni bitirgan yoshlarimizning ko'pchiligi mustaqil hayotda o'z o'rnini topa olmayapti. Sir emas, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining taxminan 10 foizigina oliy o'quv yurtlariga birinchi yili o'qishga kirmoqda, xolos.

O'zbekiston sharoitida oliy ta'limda ta'lim sifatini ta'minlashga nazoratning «Davlat, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari» nazorati va «Tashqi baholash» (DTM tomonidan) ishlari samarali faoliyat olib bormoqda, deya olmaymiz. Xususan, «Davlat, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari» nazoratining aynan, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari» qismi bo'yicha faoliyati sezilarli darajada emas.

Oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini isloh qilishning jahonda tan olingan, tajribada isbotlangan 4 ta modeli mavjud. Bular AQSh, Frantsiya, Germaniya va Yaponiya modellaridir. Ular, garchi, umumiy qoida va yo'nalishlar

bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lsa-da, lekin ushbu mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy holati, milliy xususiyatlari hamda fuqarolarning yashash sharoitidan kelib chiqib, farq qiladi.

Globallashuv jarayonida mamlakatimiz barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ilmfan, yangi texnika-texnologiyalar rivoji muhim rol o'ynaydi. Quvonarlisi shuki, mamlakatimiz rahbariyati ushbu sohalarga katta e'tibor qaratmoqda.

Mamlakatimizda ham ta'lim tizimini rivojlantirish borasida, son ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichiga o'tish tizimini joriy etish orqali bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, oliy ta'lim tizimida ta'lim tizimini yanada samarali tashkil etish, sifatli o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatni yanada rivojlantirish bo'yicha joriy yilning 24-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-81-sonli hamda 27- may kuni "Oliy va professional ta'lim tashkilotlari talabalari va o'quvchilariga budjet mablag'lari hisobidan ta'lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-82 sonli Farmonlari qabul qilindi. Mazkur farmonlarning qabul qilinishi mamlakatda oliy ta'lim tizimini yanada samarali va sifatli bo'lishiga imkon yaratmoqda.

Shularni hisobga olgan holda, mamlakatimizda ham bu borada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda va kelgusida bunday samarali chora-tadbirlarni keng ko'lamda davom ettirish rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari: PF-81 "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida", PF-82 "Oliy va professional ta'lim tashkilotlari talabalari va o'quvchilariga budjet mablag'lari hisobidan ta'lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to'g'risida", 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim vazirligi. Oliy ta'lim muassasalarida sifatni oshirish bo'yicha tavsiyalar. – Toshkent, 2022.
3. Abdullayeva Sh. O'zbekistonda ta'lim islohotlari: nazariy va amaliy tahlil. – Toshkent: Fan, 2021.
4. Qo'qonov A. Ta'limning iqtisodiy o'sishga ta'siri. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.